

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti, Mustaqil tadqiqotchisi,

Bugungi kunda axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida 2022 yil 22 avgust kuni Prezident tomonidan «2022-2023 yillarda axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror mizolandi.

Mazkur qarorda, 2022 yil yakuniga qadar aholi yashash maskanlarini keng polosali mobil aloqa tarmog'i bilan qamrab olish darajasini 98 foizga, xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo'llari bo'ylab yuqori tezlikdagi mobil internet qamrovini 60 foizga yetkazish, 40 ming km. optik tolali aloqa liniyalarini qurish hamda qo'shimcha 800 ming xonadonni yuqori tezlikdagi internetga ulash imkoniyatini yaratish orqali optik tolali aloqa qamrovini 80 foizga yetkazish, elektron davlat xizmatlari ko'rsatilishiga xususiy sektorni jalb qilish orqali foydalanuvchilar sonini 2 barobar oshirish, hududlarda yoshlarning zarur ko'nikmalarga ega bo'lishi va ularni kafolatlangan buyurtmalar bilan ta'minlashga xizmat qiladigan markazlarni yaratish orqali IT-xizmatlar eksporti hajmini 100 mln. dollarga yetkazish belgilangan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bo'yicha mamlakatda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Birinchidan, xalqaro va shaharlararo telekommunikasiya tarmog'ini rivojlantirish maqsadida, xalqaro internet tarmog'iga ulanishning umumiy o'tkazuvchanlik qobiliyati 2,6 barobarga oshirilib, 3 200 Gbit/s.ga yetkazildi (2020 yilda 1 200 Gbit/s.). Magistral telekommunikasiya tarmoqlari o'tkazuvchanlik qobiliyati viloyatlararo darajada 600 Gbit/s.ga (2020 yilda 400 Gbit/s), tumanlararo darajada esa 60 Gbit/s.ga (2020 yilda 40 Gbit/s) yetkazildi.

Bu bilan respublikada internet tezligini oshirish, operator va provayderlarga internet xizmatlari uchun tarifning 2021 yil boshiga nisbatan 25 foizga arzonlashtirishga erishildi (1 Mbit/s. uchun 30,0 ming so'mni tashkil etmoqda).

Shuningdek, 2021-2022 yillarda qo'shimcha 102 ming km. optik-tolali aloqa liniyalarini qurish orqali ularning umumiy uzunligi 170 ming km.ga yetkazildi (2020 yilda 68 ming km.).

2020 yil yakunida 2,7 mln. uy xo'jaliklari, tadbirkorlik subyektlari va ijtimoiy soha obyektlarining keng polosali Internetga ulanish imkoniyati mavjud bo'lgan bo'lsa, so'ngi ikki yilda qo'shimcha 1,7 mln. keng polosali portlar o'rnatilishi natijasida jami 4,4 mln. uy xo'jaliklari, tadbirkorlik subyektlari va ijtimoiy soha obyektlarining keng polosali internetga ulanish imkoniyati yaratildi.

Respublika aholisining internet xizmatidan foydalanuvchilari soni 31,0 mln.dan ortdi (2020 yilda 22,5 mln.), shundan mobil internet foydalanuvchilari soni 29,5 mln. (2020 yilda 21,5 mln.) tashkil etadi.

Shuningdek, so'nggi ikki yilda 22 300 ta qo'shimcha tayanch stansiyalari o'rnatilib, ularning umumiy soni 54,0 mingga yetkazildi (2020yilda 31,7 mingga), respublika bo'yicha mobil aloqa qamrovi darajasi 99 foiz (2020 yilda 98 foiz – mobil aloqa abonentlari soni 31,3 mln. (2020 yil holatiga 25,9 mln.), keng polosali mobil internet qamrovi 98 foizga yetkazildi (2020 yilda 90 foiz). Natijada o'tgan davr mobaynida yuqori tezlikdagi mobil internet foydalanuvchilar soni 8 mln.dan ortdi.

Xalqaro va davlat ahamiyatiga molik avtomobil yo'llarini 60 foizini mobil aloqa qamrovi bilan ta'minlash natijasida aholi va sayyohlarning yo'llarda internetdan foydalanish imkoniyati kengaytirildi.

Ikkinchidan, elektron hukumatni rivojlantirish maqsadida yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YaIDXP) orqali 368 turdagi xizmat onlayn shaklda ko'rsatilishi yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda mazkur portalda ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 4 millionga yetdi (2022 yil boshida – 1,1 mln.). Shuningdek, foydalanuvchilar tomonidan portal xizmatlaridan yil boshidan jami 12 mln. marotaba foydalanilgan.

Shuningdek, Davlat xizmatlaridan foydalanish uchun shaxsni identifikatsiyalashning mavjud tizim va vositalariga qo'shimcha ravishda jismoniy shaxsni identifikatsiyalashning Mobile-ID tizimi joriy etildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, elektron hukumat tizimidagi axborotlar almashinuvida Yagona identifikatsiya tizimi – OneID ning o'rni katta bo'lib, tizim foydalanuvchilari 7 mln.ga yetdi, kuniga ro'yxatdan o'tuvchilar soni 4 000 dan ortiqni tashkil etyapti. Davlat xizmatlaridan foydalanishni yengillashtirish maqsadida MobileID tizimi orqali identifikatsiya qilish imkoniyati yaratildi. Tijorat banklari hamda to'lov tizimlari operatorlariga axborot xavfsizligi talablariga rioya etgan holda, o'zlarining mobil ilovalari orqali jismoniy va yuridik shaxslarga Yagona portaldagi elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishga ruxsat etilishi natijasida AT «Aloqa bank»ning «Zoomrad» mobil ilovasida avtotransport vositasi hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq ma'lumotlar jismoniy shaxslarga taqdim etilmoqda. 2022 yilda O'zbekiston BMT tomonidan olib boriladigan Elektron hukumat reytingida 18 pog'ona yuqorilab, 193 ta mamlakat orasida 69-o'ringa ko'tarildi (2020 yilda 87-o'rinda edi). Shuningdek, Jahon bankining «GovTech» reytingida hukumat va davlat xizmatlari sektori bo'yicha 37 pog'onaga (198 mamlakat ichida 43-o'rin), raqamli ko'nikmalar va davlat xizmatlaridagi innovatsiyalar bo'yicha 65 pog'ona yuqoriladi (4-o'rinni egalladi).

Uchinchidan, raqamli industriya hajmini kengaytirish maqsadida IT-Park rezidenti sifatida ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni 1037 taga yetkazildi (2021 yil 1 dekbrga nisbatan 2 barobar oshgan). Shundan 150 tasi IT-Park rezidenti bo'lgan xorijiy IT kompaniyalar (xorijiy kapital ishtirokidagi korxonlar) hisoblanadi. Bugungi kunda Jizzax, Sirdaryo, Farg'ona, Namangan, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm, Toshkent viloyatlari, Toshkent shahri hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanida jami 16 ta masofaviy xizmatlarni ko'rsatish markazlari tashkil etildi.

20-Aprel, 2025-yil

Hozirgi kunga qadar ushbu markazlarda 400 dan ortiq yoshlar ish bilan ta'minlandi. IT-xizmatlar eksporti hajmi o'tgan yilga nisbatan 2,2 barobar o'sib, 100 mln. AQSh doll.ni tashkil etdi.

Davlat dasturida belgilangan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid vazifalarning hayotga tadbiiq etilishi natijasida internet tarmog'iga ulanish tezligining ortishi, elektron hukumatni rivojlantirish va raqamli industriya hajmini kengaytirishga turtki bo'ldi. Mazkur amalga oshirilgan ishlar yurt ravnaqi hamda aholining zamonaviy texnologiyalardan foydalanshi uchun xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Zero, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sohasiga oid islohotlar sohaning YaIMdagi ulushining ortishi hamda ko'plab yoshlarning ish bilan ta'minlanishiga zamin yaratadi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi so'nggi to'rt yil ichida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot qanday rivojlanganligi to'g'risida tadqiqot tayyorlab, unda raqamlashtirish sur'atlari 4 barobarga oshganligini ko'rsatganlar. Mutaxassis olimlarning ta'kidlashicha, raqamli iqtisodiyotda xususii biznes asosii rol o'ynashi va davlat xususii tashabbus uchun infratuzilmani yaratishi lozim.

Dunyo amaliyotida korporativ boshqaruvga xos ishonch, oshkoralik va hisobdorlik mezonlari investision muhitni yaxshilash, moliyaviy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida axborotlarning ochiiqlik darajasi xalqaro korporativ boshqaruv tamoyillarning asosii xususiiyatlaridan biri sifatida ko'rilmoqda. Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OECD) ma'lumotiga ko'ra, tashkilotga a'zo davlatlarda aksiyadorlarga axborotlarni yetkazish muddati o'rtacha 15-21 kunni tashkil etsa, a'zo davlatlarning 5 foizida, ya'ni Yaponiya, Janubii Koreya, Yangi Zelandiya va Islandiyada 15 kundan kam, Kanada, Italiya, AQSh, Vengriya, Gollandiya va Chexiyada 30 kunni, Xitoy Xalq Respublikasining Gonkong avtonom hududida esa aksiyadorlarga axborotlarni yetkazish muddati 20 ish kunini tashkil etadi. Bundan tashqari Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra korporativ boshqaruv kodeksi va qoidalarini joriiy etish mexanizmlari 2015-2021 yillar davomida deyarli 84 foiz aksiyadorlik jamiyatlarida qayta ko'rib chiqilgan bo'lsa, 10 foizi ma'lum moslashuvchan mexanizmlarni qo'llagan, 6 foizi esa o'zgartirmagan.